

ERNAZAROVA GULNORA OBLAQULOVNA

**PEDAGOGIK KVALIMETRIYA FANINING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

Monografiya



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Ernazarova Gulnora Oblaqulovna

**PEDAGOGIK KVALIMETRIYA FANINING
NAZARIY – METODOLOGIK ASOSLARI**

Monografiya

“FAN ZIYOSI” NASHRIYOTI

Toshkent-2023

-4695/x-

K

UDS: 324.423.14
KBK: 74.6(Ў36)
E-12

Mazkur monografiyada pedagogik kvalimetriya fanining ilmiy asoslari, pedagogik kvalimetriya fanining maqsadi va vazifalari, pedagogik kvalimetriya fanining nazariy – metodologik asoslari, pedagogik kvalimetriya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish, o'quv maqsadlari va ularning turlari, baholash mezonlari, shakllari va turlari, me'yorga asoslangan baholash, baholashning asosiy tamoyillari, baholash jarayonida uchraydigan ba'zi xatoliklar, amaliy mahoratni va xulq-atvorni baholash kabi ilmiy ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Monografiya "Pedagogika" ixtisosliklari bo'yicha tahsil olayotgan magistrlar hamda pedagogika sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

Muallif: **G.O.Ernazarova** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasini mudiri, p.f.d (DSc), prof.

Taqrizchilar: **p.f.d.(DSc), M.X.Baybayeva** Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrasini professori

p.f.d., prof.Maxkamov U.M. ChDPUning "Pedagogika" kafedrasini professori

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2023 yil 20 noyabr sanasida ilmiy – texnik kengashning 18-sonli majlisida ko'rib chiqilib, chop etishga ruxsat etilgan.

ISBN: 978-9910-742-38-5

©"FAN ZIYOSI" NASHRIYOTI

Kirish

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashgan bir davrda mazkur ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni qo'llashga oid metodik bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, maqsadga muvofiq tashkil etishga zamin tayyorlaydigan o'quv-metodik majmua, elektron darsliklar, nostandart adaptiv testlar banki, o'quv kurslari bo'yicha silabus yaratish orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta'lim samaradorligiga erishish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va yangilash, ularni davlat talablari va jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarish islohotlar davrining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarni e'tiborga olgan holda professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim mazmuniga bog'liq innovatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash, mashg'ulotlar ishlanmasi va texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o'quv maqsadlarni amalda qo'llay olishi, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlariga asosan ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil eta olishi lozim.

Pedagogik kvalimetriya fanlar bo'yicha zamon talablariga javob beradigan innovatsion texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlar ishlanmasi va texnologik xaritalarni loyihalashga o'rgatish dasturning asosiy maqsadini belgilab beradi.

Ushbu monografiyaning asosiy didaktik maqsadi ta'lim oluvchilarni pedagogik kvalimetriya fanining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik kvalimetriyaning metodlarini innovatsion vosita sifatida tanishtirish orqali ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini oshirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ta'lim-tarbiya jarayonida

pedagogik kvalimetriya metodlaridan maqsadga muvofiq qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirish sanaladi.

- "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlarda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish;

- O'qituvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan samarali foydalanish uchun nostandart test topshiriqlarini maqsadga muvofiq tuzish va amalda qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish;

O'qituvchilarni o'z pedagogik faoliyatini pedagogik kvalimetriya metodlaridan biri mashg'ulotlarni tahlil qilishga o'rgatish, tahliliy - tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;

Ta'lim oluvchilarning metodik bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar: "Pedagogik kvalimetriya" asoslarini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida, ta'lim oluvchi:

- Pedagogik kvalimetriya fani maqsadi va vazifalari, qo'llaniladigan sohalari.

- tadqiqot metodlari, pedagogik jarayonni nazorat qilish va baholashda kvalimetriya metodlaridan foydalanishning ahamiyati;

- Pedagogik jarayonni nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan kvalimetriya metodlarining o'ziga xos xususiyatlari;

- Fan sohalari bo'yicha test topshiriqlarini tuzish printsiplari, test topshiriqlarining tarkibi, mazmuni va samaradorligiga qo'yiladigan talablar;

- Ta'lim-tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish, olingan natijani tahlil qilish, va jarayonning borishiga tegishli o'zgartirish kiritish haqida bilimlarga ega bo'lishi;

- Ta'lim oluvchi: - Ta'lim-tarbiya jarayonida kvalimetriya metodlaridan o'z o'rnida samarali foydalanish;

- Pedagogik jarayonni nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan kvalimetriya metodlarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'z o'rnida samarali foydalanish;

- O'qitishda standart va nostandart testlardan foydalanish, test topshirig'ining tarkibi, mazmuni va samaradorligiga qo'yiladigan talablar asosida o'z sohasi bo'yicha reproduktiv, produktiv, qismanizlanishli va ijodiy test topshiriqlarini tuza olish;

- Tahsil oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning samarali yo'llari sifatida nostandart test topshiriqlarini qo'llash, shu asnoda reyting tizimini amalga oshirishda ko'nikma va malakalarini egallaydi.

Pedagogik kvalimetriya fan sifatida quyidagi maqsadlarga erishish yo'lini belgilaydi:

1. Ta'lim xizmatlarining istiqbol rejalarini shakllantirish bosqichida ta'lim davlatimizning ijtimoiy sohadagi ustuvor yo'nalish ekanligi nazarda tutilgan holda, axborotlar globallashtirilgan, dunyoda sodir bo'layotgan g'oyaviy-siyosiy o'zgarishlar, jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim muassasalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, jamiyat hayotidagi ma'naviy- ma'rifiy yangilanishlarni e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining zamon talablariga mos tashkil etilishini nazorat qilish imkonini beradigan me'yoriy talablarni ishlab chiqish;

2. Ta'lim-tarbiya jarayonining xuquqiy-me'yoriy hujjatlarini yaratish bosqichida davlat va ijtimoiy buyurtmalarga asoslangan DTS, pedagog kadrlarga qo'yiladigan malakaviy talablar asosida namunaviy o'quv rejalar, uzluksiz ta'lim tizimida joriy etilgan modernizatsiyalashtirilgan va uzviylashtirilgan namunaviy dasturlar, o'quv kurslarining moddiy-texnik, o'quv-metodik ta'minotining maqsadga muvofiqligini nazorat qilish va sifatini baholash yo'llarini ishlab chiqish;

3. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ta'lim oluvchilarning modernizatsiyalashtirilgan va uzviylashtirilgan namunaviy dasturlar, DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalari va layoqatini amalga joriy etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni, o'quv va pedagogik amaliyotning sifatini nazorat qilish va baholash me'yorlarini shakllantirish;

4. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash, ularni pedagogik jarayonga moslashtirish, pedagogik faoliyatni talab darajasida olib borilishi, ustoz-

shogirda yo'nalishida olib borilayotgan ishlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish va baholash me'yorlarini ishlab chiqish.

Pedagogik kvalimetriyaning fan sifatidagi asosiy vazifalari:

- Kadrlar tayyorlashga oid Prezident Farmoni va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish;
- Oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash jarayonining me'yoriy hujjatlari va reyting tizimini ishlab chiqish;
- Oliy ta'lim muassasalari tarkibidagi kafedralarning ilmiy salohiyati, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlari, tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlash;
- Professor-o'qituvchilarning pedagogik faoliyati, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlari, o'qitiladigan kurslarning moddiy-texnik, o'quv-metodik majmualarining sifatini aniqlash;
- Fanlar bo'yicha ta'lim oluvchilarning DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish, kompetensiyalarni tarkib topganlik darajasi va sifatini aniqlash.

Pedagogik kvalimetriyaning ilmiy-tadqiqot metodlari jumlasiga taqqoslash, olingan natijalarni matematik statistik metod vositasida tahlil qilish va xulosa yasash, pedagogik kadrlarni suhbatdan o'tkazish, o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazish, ekspertizadan o'tkazish, ijtimoiy metodlarni kiritish mumkin.

Pedagogik kvalimetriyaning dolzarb muammolari uzluksiz ta'lim tizimidatashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va baholashda tashxislash, ekspertiza, monitoring va pedagogik kvalimetriyadan foydalaniladi. Pedagogik o'lchov nazariyasiga asoslangan kvalimetrik yo'nalish o'zining keng qamrovliligi, test jarayonining daxlsizligi, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish, ta'lim oluvchilarning rivojlanish darajasi va bilimlarni o'zlashtirish sifati haqida qat'iy aniq va ranjerli natijalarni olish imkonini beradi. Nazariy kvalimetrik yo'nalishda tashkil etiladigan nazorat an'anaviy nazorat turlaridan tadqiq etilayotgan obyektning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari

sifatini baholashda ko'p miqdordagi axborot va miqdoriy baholash imkoniyati mavjudligi bilan farqlanadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarning ta'lim monitoringida test topshiriqlaridan foydalaniladi va bu metod yordamida ko'p sondagi ta'lim oluvchilarning qisqa muddatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari sifatini aniqlash, olingan natijalarga muvofiq ta'lim oluvchilarga individual yondoshish, uzluksiz ta'lim tizimi turlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlash, ularning o'rtacha qiymatini aniqlash va baholash, olingan natijalarni qayd etish amalga oshiriladi.